



ANDIJON DAVLAT  
PEDAGOGIKA  
INSTITUTI

“ANIQ FANLARNI O‘QITISHDA  
INNOVATSION TEXNOLOGIYALARINI  
QO‘LLASH” MAVZUSIDAGI XALQARO  
ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA  
MATERIALLARI  
**TO‘PLAMI**



Digital  
Object  
Identifier

Andijon 2024

**O‘zbekiston Respublikasi**  
**Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi**  
**Andijon davlat pedagogika instituti**

**“ANIQ FANLARNI O‘QITISHDA  
INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI  
QO‘LLASH”**

**Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi  
materiallari**

**TO‘PLAMI**

**Andijon  
22-may 2024-yil**

Ushbu to’plam O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 18-yanvardagi 16-son buyrug‘iga asosan “Aniq fanlarni o‘qitishda innovatsion texnologiyalarni qo‘llash” mavzusida 2024-yil 22-may kuni Andijon davlat pedagogika institutida Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari asosida tayyorlandi.

To`plam barcha ta`lim muassasalarida shu soha bo`yicha shug`ullanuvchi professor-o’qituvchilar, ilmiy tadqiqodchilar, magistrlar, doktorantlar, talabiyoshlar va keng jamoatchilik foydalanishlari uchun mo`ljallangan.

**Tahrir hay’ati:**

f.-m.f.d., prof. Sh.X.Yo’lchiyev  
PhD, dots. M.A.Muydinova  
PhD, D.P.Abduraximov  
t.f.n. dots. M.U.To’rayev  
PhD, dots. P.Abduqodirova  
dots.M.Sh.Raxmonov  
o’qituvchi A.F.Yunusov

Maqolalarda keltirilgan statistik ma`lumotlar, ilmiy-nazariy faktlarning ishonchliligi, imloviy va stilistik xatoliklar uchun muallif o`zi javobgar.

To`plam Andijon davlat pedagogika instituti Kengashining 2024-yil 03-iyundagi №10-sonli Qarori bilan nashrga tavsiya etildi.

# **MAKTAB GEOMETRIYA KURSIDA AYLANISH JISMLARINING HAJMINI HISOBBLASH FORMULALARINI KELTIRIB CHIQARISH METODIKASI**

*Darmonova Adolat Bahodir qizi*

*Chirchiq davlat pedagogika universitet,*

*“Matematika o`qitish metodikasi va geometriya”*

*kafedrasi o`qituvchisi*

*phone: +998 97 789 66 42*

*e-mail: [adolatdarmonova265@gmail.com](mailto:adolatdarmonova265@gmail.com)*

*Bobonorova Qundizxon Quralbay qizi*

*Chirchiq davlat pedagogika universitet,*

*“Matematika o`qitish metodikasi va geometriya”*

*kafedrasi o`qituvchisi*

*phone: +998990395973*

*e-mail: [gtolibayeva@gmail.com](mailto:gtolibayeva@gmail.com)*

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada aylanish jismlari ya`ni konus, kesik konus va sharning hajmini hisoblash formulalarining integral bo`yicha isbotlanishini ko`rasiz. Mavzu yanada tushunarli bo`lishi uchun jismlarning ta`riflari hamda ularning rasmlari ham keltirilgan.*

***Kalit so`zlar:** Konus, kesik konus, shar, aylanish jismlari hajmi, integral.*

***Аннотация** В этой статье вы увидите интегральное доказательство формул расчета объема объектов вращения, то есть конуса, усеченного конуса и сферы. Чтобы сделать тему более понятной, также даются определения фигуры и их изображения.*

***Ключевые слова:** Конус, усеченный конус, сфера, объем вращающихся тел, интеграл.*

## **Kirish.**


Maktab matematika kursining tuzilmasiga kiruvchi va yuqori sinflarda o`rganishga mo`ljallangan geometriya qismida aylanma figuralarning metrik o`lchovlarini o`rganish muhimdir. O`quvchi uchun masalan, aylanma figuralarning hajmlari ko`p xollarda tayyor formulalar asosida hisoblanadi. Tajriba shuni ko`rsatadiki, o`quvchilarda bu formulalar nimaga asoslanishi bilishga qiziqish katta. Maktab ta’limning ilmiy tadqiqot metodologiyasiga

asoslangan yondoshuv orqali o`qitish jarayonlariga ko`ra ushbu formulalarni keltirib chiqarish muhim ahamiyatga ega. Bunda o`quvchilarda mulohazalarni (teoremalar va b.) isbotlash va mantiqiy fikrlash ko`nikmalari shakllanadi. Bu esa maktab matematika kursinin o`qitishning muxim vazifalaridan biri xisoblanadi.

### **Asosiy qism.**

#### **Konus.**

**Ta’rif:** Konus deb, to`g`ri burchakli uchburchakni biror katetini o`q sifatida tanlab olib, bu o`q atrofida berilgan uchburchakni aylantirishdan hosil qilingan shaklga aytildi.




**Teorema:** Konusning hajmi asos yuzi bilan balandligi ko`paytmasining uchdan biriga teng, ya’ni:

$$S = \frac{1}{3} \pi R^2 h$$

**Isbot:** Ushbu teoremani isbotlashda aylanish jismlari hajmini hisoblash formulasidan foydalanamiz, ya’ni [2,3]:

$$V = \pi \int_a^b [f(x)]^2 dx = \pi \int_a^b y^2 dx$$

To`g`ri burchakli uchburchak olamiz  $AB$  kesmani  $y = kx$  chiziqli funksiya ko`rinishda ifodalaymiz.  $y = kx$  chiziqli funksiyani  $Ox$  o`qi atrofida  $x = [0; h]$  kesmada aylantirishdan konus hosil bo`ladi .



Bu yerda  $k$  – burchak koeffisiyent,  $k$  ni topish uchun  $k = \operatorname{tg} \alpha$  formuladan foydalanamiz.  $\operatorname{tg} \alpha = k = \frac{R}{h}$ ,  $y = kx$  funksiyaga  $k$  ning o`rniga qo`yamiz, natijada  $f(x) = y = \frac{R}{h}x$  hosil bo`ladi. Bunda  $R$  konus asosi radiusi vazifasini bajaradi.


Endi konus hajmini integrallab hisoblab olamiz. Bunda

$$V = \pi \int_a^b [f(x)]^2 dx = \pi \int_0^h \frac{R^2}{h^2} x^2 dx = \pi \frac{R^2}{h^2} \int_0^h x^2 dx = \pi \frac{R^2}{h^2} \frac{x^3}{3} \Big|_0^h = \pi \frac{R^2}{h^2} \frac{h^3}{3} - 0 = \frac{1}{3} \pi R^2 h$$

natija kelib chiqadi. Teorema isbotlandi.

### Kesik konus.

**Ta’rif:** Kesik konus deb, konusning asosi va unga parallel tekislik bilan hosil qilingan kesimi orasidagi qismiga aytildi.




Bu yerda  $DC = r$  – kichik asos radiusi,  $AB = R$  – kata asos radiusi,  $CB = h$  – kesik konus balandligi.

**Teorema:** Kesik konusning hajmi quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$V = \frac{\pi}{3} h (R^2 + Rr + r^2)$$

**Isbot:** Kesik konusning hajmini topish formulasi konusning hajmini topish formulasi kabi isbotlanadi. Bunda faqat chegaralar o'zgaradi xolos.



To`g`ri burchakli trapetsiyani  $Ox$  o`qi atrofida aylantirishdan kesik konus hosil bo`ladi.  $BC$  kesmani  $y = kx + b$  ko`rinishidagi funksiya orqali ifodalab olamiz.  $r$  nuqtadan  $Ox$  o`qiga parallel to`g`ri chiziq o`tkazamiz. Bu yerda funksiya  $[0; r]$  nuqtadan o`tadi. Shu boisdan  $b$  ni topib olamiz  $x = 0, y = r, y = kx + b \Rightarrow b = r$ .  $k$  – *burchak koeffisiyent*,  $k$  ni topish uchun  $k = \tan \alpha$  formuladan foydalanamiz.  $\tan \alpha = k = \frac{R - r}{h}$ ,  $y = kx + b$  funksiyadagi  $k$  ning o`rniga qo`yamiz, natijada  $y = \frac{R - r}{h}x + r$  funksiya hosil bo`ladi. Endi kesik konusning hajmini integrallash orqali hisoblab topamiz.


$$V = \pi \int_a^b f^2(x) dx = \pi \int_0^h \left( \frac{R - r}{h} x + r \right)^2 dx = \pi \frac{h}{R - r} \frac{1}{3} \left( \frac{R - r}{h} x + r \right)^3 \Big|_0^h = F(h) - F(0) = \pi \frac{h}{R - r} \left( \frac{R^3 - r^3}{3} \right) = \pi \frac{h}{R - r} \frac{(R - r)(R^2 + rR + r^2)}{3} = \frac{\pi}{3} h (R^2 + rR + r^2)$$

Teorema isbotlandi.

### Sharning hajmi.

**Ta'rif:** Fazoda berilgan nuqtadan, berilgan masofadan kata bo`lмаган узоқликда ўтган нуқталардан иборат жисмга шар дейилади. Berilgan sharning markazi, berilgan masofa esa sharning radiusi дейилади.

**Boshqacha ta'rif:** Yarim yoki to`la doiraning o`z diametri atrofida аylanishidan hosil bo`lgan jismni шар дейилади.




**Teorema:** Sharning hajmi quyidagi formula orqali hisoblanadi, ya'ni:

$$V = \frac{4}{3} \pi R^3$$

**Isbot:** Sharning hajmini hisoblash formulari ham boshqa aylanish jismlari hajmini hisoblash formulalari kabi hisoblanadi.

Markazi ( $R:0$ ) nuqtada bo`lgan yarim aylana olamiz va uni  $Ox$  o`qi atrofida aylantirishdan shar hosil bo`ladi.



Integralni hisoblash uchun aylananing tenglamasi tuzib olamiz. Ma'lumki aylana tenglamasining  $(x-a)^2 + (y-b)^2 = R^2$  ko`rinishda bo`ladi. Bizda aylana markazi ( $R:0$ ) nuqtadan o`tkani uchun tenglama quyidagi ko`rinishga keladi.

$$(x-R)^2 + (y-0)^2 = R^2 \Rightarrow y^2 = R^2 - (x-R)^2 \Rightarrow y^2 = R^2 - x^2 + 2xR - R^2 \Rightarrow y^2 = 2xR - x^2$$

$$y = \sqrt{2xR - x^2}, \quad 0 \leq x \leq 2R$$

Endi sharning hajmini integrallash orqali hisoblab olamiz.

$$V = \pi \int_0^{2R} y^2(x) dx = \pi \int_0^{2R} (2xR - x^2) dx = \pi \left( x^2 R - \frac{x^3}{3} \right) = [F(2R) - F(0)] = \pi \left( \frac{12R^3 - 8R^3}{3} \right) = \frac{4}{3} \pi R^3$$

Teorema isbotlandi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karim Muhammedov. Elementar matematikadan qo`llanma (Oliy o`quv yurtiga kiruvchilar uchun). Uchinchi nashr. O`qituvchi. Toshkent-1976.

2. [https://www.google.com/url?sa=i&url=http%3A%2F%2Fiht.uz%2Fdownload%2Fslides%2F2kurs%2Fgeometry%2F2semuz%2F013.%2520II\\_kurs\\_2\\_semestr\\_013\\_014\\_13-14](https://www.google.com/url?sa=i&url=http%3A%2F%2Fiht.uz%2Fdownload%2Fslides%2F2kurs%2Fgeometry%2F2semuz%2F013.%2520II_kurs_2_semestr_013_014_13-14)

3. Aylanish\_jismlari\_sirtining\_yuzi\_va\_hajmini\_hisoblashga\_doir\_masalalarini\_yechish.pdf&psig=AOvVaw0tds95QJ9PbE97YA7YwstE&ust=1700027052362000&source=images&cd=vfe&opi=89978449&ved=0CBEQjRxqFwoTCIibn6zmwoIDFQAAAAAdAAAAABAE